



**KASBIY TA'LIM TIZIMIDA O'QUVCHILARDA TADBIRKORLIK
KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA XORIJIY
TAJRIBALARNING ROLI**

TOJIYEV SIROJIDDIN SAYRIDDINOVICH

Kasbiy ta'limni rivojlantirish instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur tezisda kasbiy ta'lim tizimida o'quvchilarda tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishda rivojlangan davlatlar tajribasi tahlil qilingan. Xususan, Yevropa Ittifoqining EntreComp kompetensiyalar modeli, Germaniyaning dual ta'lim tizimi, Finlyandiyaning kompetensiyaga asoslangan ta'lim modeli hamda AQSHning Junior Achievement dasturi misolida tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, mazkur tajribalarni O'zbekiston kasbiy ta'lim tizimiga moslashtirish yuzasidan amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy ta'lim, tadbirkorlik kompetensiyasi, EntreComp, dual ta'lim, innovatsion ta'lim, xorijiy tajriba, startap, kompetensiyaviy yondashuv.

KIRISH

“Tadbirkorlik” tushunchasi ilmiy muomalaga iqtisodiyot fani orqali kirgan va uzoq evolyutsiyani bosib o'tgan. Uni birinchi bo'lib 1725-yilda fransuz iqtisodchisi Richard Kantilon fanga olib kirgan bo'lib, u tadbirkorni



noaniqlik sharoitida faoliyat yurituvchi va tavakkalchilikni o'z zimmasiga oluvchi shaxs sifatida ta'riflagan. Jan-Batist Sey tadbirkorlikni ishlab chiqarishning uch klassik omili – yer, kapital va mehnatni birlashtiruvchi, ularni maqsadga muvofiq tarzda uyg'unlashtiruvchi faoliyat sifatida talqin qilgan.

Tadbirkorlik nazariyasining zamonaviy asosini esa Yozef Shumpeter yaratdi: uning konsepsiyasiga ko'ra tadbirkor – bu shunchaki tavakkal qiluvchi mulkdor emas, balki iqtisodiyotga yangi kombinatsiyalarni olib kiruvchi, mavjud muvozanatni buzuvchi va shu orqali taraqqiyotni harakatga keltiruvchi innovator. Aynan Shumpeter tadbirkorlikni mulkka egalik qilishdan ajratdi va uni faoliyat turi, tafakkur tarzi sifatida belgiladi. Bu ajratish keyinchalik tadbirkorlikni pedagogik kategoriya sifatida talqin qilish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qildi: agar tadbirkorlik tug'ma xususiyat yoki mulkiy holat emas, balki muayyan faoliyat usuli bo'lsa, demak, u o'rgatilishi va shakllantirilishi mumkin.

Shumpeterdan keyingi davrda tadbirkorlik nazariyasi yana bir muhim burilish yasadi. S.Sarasvatining effektuatsiya (effectuation) nazariyasi tadbirkorlik mantiqining an'anaviy "sababiy" (causal) mantiqdan tubdan farq qilishini asoslab berdi: agar sababiy mantiqda avval maqsad belgilanib, keyin unga erishish uchun resurs izlansa, effektual mantiqda tadbirkor mavjud resursdan (kim ekanligim, nimani bilishim, kimni tanishim) kelib chiqib harakat qiladi va maqsadni jarayonda shakllantiradi. Ushbu nazariyaning pedagogik ahamiyati beqiyos: u tadbirkorlik ta'limining boshlang'ich nuqtasini o'zgartiradi. O'quvchidan "katta biznes g'oyasi"ni talab qilish o'rniga, uning mavjud kasbiy bilimi va resursidan kelib chiqib harakat qilishga o'rgatish kerak. Bo'lajak buxgalter uchun bu – o'zining hisob yuritish bilimi, 1C dasturini bilishi va dual hamkor korxonada orttirgan tanishlar doirasi –

tadbirkorlik faoliyatining tayyor boshlang'ich resursidir. Effektiv mantiq shu tariqa tadbirkorlik ta'limini kasbiy ta'lim bilan tabiiy ravishda birlashtiradi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tadbirkorlik ta'limi (entrepreneurship education) mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllandi. A.Gibb tadbirkorlikni o'qitishning an'anaviy "biznes-ta'lim" paradigmasidan tubdan farq qiluvchi yangi paradigmasini asoslab berdi: uning fikricha, tadbirkorlik ta'limining maqsadi biznes haqida bilim berish emas, balki o'quvchida noaniqlik sharoitida harakat qila olish, imkoniyatni ko'ra bilish va qadriyat yarata olish qobiliyatini rivojlantirishdir.

D.Kuratko tadbirkorlik ta'limining rivojlanish bosqichlarini tahlil qilib, uning asosiy muammosi sifatida "tadbirkorlik haqida o'qitish" (teaching about entrepreneurship) va "tadbirkorlik uchun o'qitish" (teaching for entrepreneurship) o'rtasidagi uzilishni ko'rsatdi. H.Nek va P.Grin bu qatarga uchinchi – eng samarali yondashuvni qo'shdilar: "tadbirkorlik orqali o'qitish" (teaching through entrepreneurship), ya'ni o'quvchining o'zi real tadbirkorlik harakatini bajarishi orqali o'rganishi. D.Kirbi biznes maktablari tadbirkorlik ta'limi oldida turgan chaqiriqqa javob bera olmayotganini, chunki ular tadbirkorlik haqida nazariy bilim berayotganini, ammo tadbirkorona xatti-harakatni shakllantira olmayotganini asoslab berdi.

Zamonaviy tadbirkorlik ta'limining eng muhim konseptual yutug'i – tadbirkorlikni kompetensiya sifatida talqin qiluvchi Yevropa Ittifoqining EntreComp ramkasi hisoblanadi. Ushbu ramka M.Bachigalupo, P.Kampilis, Y.Punie va G.Van den Brande tomonidan Yevropa Komissiyasining Qo'shma tadqiqot markazi (JRC) doirasida ishlab chiqilgan bo'lib, u tadbirkorlikni "imkoniyatlar va g'oyalarni boshqalar uchun qadriyatga aylantira olish qobiliyati" sifatida ta'riflaydi. Bu ta'rifning prinsipial ahamiyati shundaki, u tadbirkorlikni biznes yaratish bilan cheklamaydi va uni har qanday kasbiy hamda ijtimoiy faoliyatga tatbiq etilishi mumkin bo'lgan ko'ndalang



(transversal) kompetensiyaga aylantiradi. EntreComp uch kompetensiya sohasini ajratadi: “G‘oyalar va imkoniyatlar”, “Resurslar” va “Harakatga o‘tish”. Har bir soha besh kompetensiyani o‘z ichiga oladi – jami 15 ta kompetensiya – va ularning har biri sakkiz darajali progressiya modeli bo‘yicha o‘tib boradi. Ramkani amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha E.Makkallum va uning hammualliflari alohida metodik qo‘llanma ishlab chiqqanlar, Yevropa Komissiyasining pedagoglar uchun qo‘llanmasi esa uni ta’lim jarayoniga kiritishning aniq yo‘llarini ko‘rsatadi.

EntreComp ramkasi so‘nggi yillarda jiddiy ilmiy tekshiruvdan o‘tdi.

2024 yilda o‘tkazilgan tizimli adabiyot tahlili 140 dan ortiq manbani qamrab olib, ramkaning tuzilmasi va mazmunini tasdiqladi hamda uning asosiy kuchi tadbirkorlikni jarayon sifatida – imkoniyatni aniqlashdan qadriyat yaratishgacha bo‘lgan izchillikda – ko‘rsata olishida ekanligini qayd etdi. Bibliometrik tahlil natijalari ramkaning butun Yevropa bo‘ylab keng qabul qilinganini ko‘rsatadi. O.Tuten, M.Loi va M.Opitsining kasbiy ta’limdagi tadbirkorlik kompetensiyalariga bag‘ishlangan tadqiqoti esa ramkani aynan kasb-hunar ta’limi kontekstida qo‘llash imkoniyatlarini asoslaydi. Shu bilan birga, mazkur tahlillar ramkaning zaif tomonini ham ko‘rsatdi: EntreComp kompetensiyalar to‘plamini aniq belgilaydi, biroq ularni muayyan kasb sharoitida qanday shakllantirish va o‘lchash kerakligi bo‘yicha metodik yechim taklif etmaydi. Bu bo‘shliq mazkur dissertatsiyaning muammo maydonini bevosita belgilaydi.

Tadbirkorlik kompetensiyalarining mohiyatini aniqlash uchun avvalo “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarining o‘zaro nisbatini oydinlashtirish zarur. Pedagogika fanida bu masala uzoq muddat munozarali bo‘lib kelgan. I.A.Zimnyaya kompetensiyani shaxsning ichki, potensial imkoniyati sifatida, kompetentlikni esa uning faoliyatda namoyon bo‘lgan holati sifatida farqlaydi. V.I.Baydenko kompetensiyani ta’lim natijasining



yangi paradigmasi sifatida talqin qilib, uni bilim, ko‘nikma va malakaning oddiy yig‘indisidan farqlaydi: kompetensiya – bu ularni real vaziyatda safarbar eta olish qobiliyatidir. V.A.Bolotov va V.V.Serikov kompetensiyaviy modelning g‘oyadan ta‘lim dasturiga aylanish yo‘lini tahlil qilib, uning asosiy belgisi sifatida ta‘lim natijasining faoliyatli xarakterini ko‘rsatadilar. E.F.Zeer kasbiy ta‘lim psixologiyasi doirasida kompetensiyani shaxsning kasbiy rivojlanishi bilan uzviy bog‘laydi.

Xalqaro pedagogikada bu masala M.Mulderning kompetensiyaga asoslangan kasbiy ta‘lim bo‘yicha fundamental tadqiqotida eng to‘liq yoritilgan. U kompetensiyani muayyan kontekstda samarali faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va shaxsiy sifatlarning integrallashgan majmui sifatida ta‘riflaydi va kompetensiyaning kontekstdan ajralmasligini alohida ta‘kidlaydi. F.Rauner va uning hammualliflari tomonidan ishlab chiqilgan COMET modeli esa kasbiy kompetensiyani ish jarayonlarini mustaqil rejalashtirish, bajarish va nazorat qilish qobiliyati sifatida operatsionallashtiradi hamda uni o‘lchashning empirik apparatini beradi. Cedefop tomonidan ishlab chiqilgan Yevropa ta‘lim atamashunosligi kompetensiyani “bilim, ko‘nikma va shaxsiy, ijtimoiy hamda metodologik qobiliyatlarni ish yoki o‘qish vaziyatlarida qo‘llay olish” sifatida belgilaydi.

Mazkur tadqiqot uchun prinsipial ahamiyatga ega bo‘lgan holat shundan iboratki, “kompetensiya” tushunchasining me‘yoriy ta‘rifi O‘zbekiston kasbiy ta‘limining amaldagi hujjatida ham berilgan. 50410101-Buxgalteriya hisobi va audit mutaxassisligi bo‘yicha namunaviy o‘quv dasturida kompetensiya “bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlarni majmui” sifatida ta‘riflanadi. Bu ta‘rifning uch jihati diqqatga sazovor. Birinchidan, u kompetensiyani ko‘nikmadan ajratadi va ko‘nikmani kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida belgilaydi. Ikkinchidan, u kompetensiya tarkibiga shaxsiy sifatlarni kiritadi – bu esa tadbirkorlik kompetensiyasining motivatsion, tavakkalchilikka



munosabat va o'z-o'ziga ishonch kabi komponentlarini pedagogik jihatdan asoslash imkonini beradi. Uchinchidan, o'sha hujjat kasbiy kompetensiya (bilim, ko'nikma va amaliy tajriba asosida kasbiy vazifalarni bajarish qobiliyati) va umumiy kompetensiya (kasbga yaqin faoliyat turlari uchun umumiy bo'lgan masalalarni hal etish qobiliyati) toifalarini ajratadi. Mazkur tasnif tadqiqotimizning tushunchaviy apparatiga asos qilib olinadi.

Yuqoridagi tahlil asosida mazkur dissertatsiyada tadbirkorlik kompetensiyalari quyidagicha ta'riflanadi: bu – kasb-hunar ta'limi o'quvchisining o'z kasbiy bilimi, ko'nikmasi va amaliy tajribasi asosida bozorda mavjud imkoniyatni aniqlay olish, uni qadriyatga aylantiruvchi g'oya sifatida shakllantirish, zarur resurslarni safarbar etish, tavakkalni baholagan holda qaror qabul qilish hamda ushbu g'oyani real iqtisodiy natijaga aylantirish qobiliyatini ta'minlovchi bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlarning integrallashgan majmui. Mazkur ta'rif EntreComp ramkasining “qadriyat yaratish” yadrosiga, amaldagi me'yoriy hujjatning kompetensiya ta'rifiga hamda kompetensiyaning kontekstga bog'liqligi haqidagi M.Mulder qoidasiga asoslanadi.

Mazkur ta'rifni 50410101-Buxgalter kasbiga tatbiq etganda uning aniq mazmuni ochiladi. Buxgalter kasbi tadbirkorlik nuqtai nazaridan alohida o'rin tutadi: birinchidan, uning kasbiy mahsuloti (hisob yuritish, soliq hisoboti, moliyaviy tahlil, maslahat) xizmat sifatida bozorda mustaqil sotilishi mumkin; ikkinchidan, bu xizmat uchun katta boshlang'ich kapital talab qilinmaydi; uchinchidan, kichik tadbirkorlik subyektlari – yakka tartibdagi tadbirkorlar, oilaviy korxonalar, mikrofirmalar – shtatda doimiy buxgalterni saqlay olmaydi va aynan tashqi buxgalteriya xizmatiga muhtoj. Bu esa buxgalter kasbi bitiruvchisi uchun o'z ishini boshlashning obyektiv iqtisodiy asosini yaratadi. Demak, mazkur kasb bo'yicha tadbirkorlik kompetensiyalari mavhum “biznes yuritish qobiliyati” emas, balki o'z kasbiy xizmatini loyihalash, uning

tannarxini hisoblash, narxini belgilash, mijozni topish va u bilan ishlash, xizmat sifatini nazorat qilish hamda faoliyatni huquqiy va soliq jihatidan rasmiylashtirish qobiliyati sifatida aniqlashtiriladi.

Mazkur kasbning yana bir muhim xususiyati shundaki, buxgalterning tadbirkorlik faoliyati mijozning tadbirkorlik faoliyati bilan uzviy bog‘langan. Yakka tartibdagi tadbirkor yoki mikrofirmaga xizmat ko‘rsatayotgan buxgalter mijozning biznes-modelini, daromad manbalarini, xarajat tuzilmasini va soliq yukini ichkaridan ko‘radi. Bu esa unga tadbirkorlikni nazariy tavsif orqali emas, balki real iqtisodiy jarayonning ichidan turib o‘rganish imkonini beradi. Dual ta’lim sharoitida o‘quvchi bir vaqtning o‘zida ikki rolda bo‘ladi: u kasbiy vazifani bajaruvchi mutaxassis va tadbirkorlik faoliyatini kuzatuvchi hamda unda ishtirok etuvchi subyektdir. Mazkur ikkilamchi pozitsiya – kasbiy ta’limning boshqa hech bir kasbida bunchalik tabiiy tarzda namoyon bo‘lmaydi – buxgalter kasbini tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish uchun eng qulay maydonga aylantiradi.

Tadbirkorlik kompetensiyalarining tarkibiy tuzilmasi masalasi pedagogika fanida turlicha yechilgan. Respublika tadqiqotlarida mazkur kompetensiyalar tarkibida motivatsion, intellektual, amaliy-faoliyatli, refleksiv va kreativ komponentlar ajratiladi. Xalqaro amaliyotda esa EntreComp ramkasi uch sohali – g‘oyalar, resurslar va harakat – tuzilmani taklif etadi. Mazkur yondashuvlar bir-birini istisno qilmaydi va tadqiqotimizda ikkalasi ham hisobga olinadi. Shu bilan birga, mavjud tuzilmalar ta’lim jarayoni bir subyektli – ta’lim tashkiloti doirasida kechadi deb faraz qiladi. Dual ta’lim sharoitida jarayonning ikki subyektli tabiati mazkur tuzilmani qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Dual ta’limda o‘quvchi bir vaqtning o‘zida ikki o‘quv maydonida – texnikumda va korxonada – faoliyat yuritadi; uning o‘rganishi ikki turli mantiq (didaktik va ishlab chiqarish mantig‘i) bo‘yicha kechadi; uni ikki subyekt (pedagog va ustoz) qo‘llab-quvvatlaydi va baholaydi.



Tadbirkorlik ta'limi va dual ta'limning o'zaro bog'liqligi masalasi alohida e'tiborga loyiq. M.Lakeusning Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti hamda Yevropa Komissiyasi topshirig'i bilan tayyorlangan tadqiqoti tadbirkorlik ta'limining eng samarali shakli sifatida “qadriyat yaratishga asoslangan ta'lim” (value creation pedagogy) ni asoslaydi: o'quvchi tashqi shaxs – real mijoz, real foydalanuvchi – uchun haqiqiy qadriyat yaratganda, uning tadbirkorlik kompetensiyalari eng jadal shakllanadi. A.Fayol tahriri ostidagi tadbirkorlik ta'limi tadqiqotlari qo'llanmasi bu qoidani turli milliy kontekstlarda tasdiqlaydi, A.Fayol va B.Geyli esa tadbirkorlik ta'limining o'quvchi munosabati va niyatiga uzoq muddatli ta'sirini empirik o'lchaganlar. Mazkur natijalar dual ta'lim bilan tabiiy tarzda uyg'unlashadi: dual hamkor korxona – bu aynan o'quvchi qadriyat yarata oladigan real tashqi muhitdir. Shu tariqa tadbirkorlik ta'limining eng ilg'or nazariy yo'nalishi va dual ta'limning tashkiliy shakli bir-birini to'ldiradi – ammo mazkur uyg'unlik hozirgacha metodik jihatdan ishlab chiqilmagan.

Dual ta'lim tizimining nazariy va tashkiliy asoslari xorijiy pedagogikada keng o'rganilgan. F.Rauner va R.Makleanning kasb-hunar ta'limi tadqiqotlari bo'yicha fundamental qo'llanmasi dual tizimning ikki o'quv maydoni prinsipini, uning huquqiy va didaktik asoslarini tizimlashtiradi. D.Euler Germaniya dual tizimining boshqa mamlakatlarga ko'chirilishi (transfer) muammosini maxsus tadqiq etib, tizimni mexanik nusxalash mumkin emasligini, uning faqat milliy sharoitga moslashtirilgan shaklda samarali bo'lishini asoslaydi. T.Deyssinger Germaniya dual tizimining «yaxshi amaliyot» sifatidagi maqomini tanqidiy tahlil qiladi va P.Gonon bilan birgalikda Germaniya hamda Shveysariya tizimlarining madaniy kontekstini qiyoslaydi. U.Renold Shveysariya modelining moslashuvchanligi va “o'tkazuvchanligi” (permeability) uning muvaffaqiyati asosi ekanligini ko'rsatadi, L.Lassnigg esa Avstriya shogirdlik siyosatining mehnat bozori talablariga dinamik moslashuv mexanizmlarini tahlil qiladi. Cedefopning



Yevropa mamlakatlaridagi shogirdlik tizimlari bo'yicha qiyosiy hisoboti mazkur tajribani tizimli ko'rinishda taqdim etadi.

O'zbekistonda ham kasbiy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mazkur yo'nalishlarning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Biroq tahlillar tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish bo'yicha yagona metodik yondashuv, baholash mezonlari va amaliyotga yo'naltirilgan mexanizmlarni takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda. Shu bois xorijiy ilg'or tajribalarni milliy ta'lim tizimiga to'g'ridan to'g'ri ko'chirish emas, balki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti, mehnat bozori talablari va milliy qadriyatlarini hisobga olgan holda adaptatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar asosida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Kasbiy ta'lim muassasalari o'quv rejaları va fan dasturlarini Yevropa Ittifoqining EntreComp kompetensiyalar modeli asosida takomillashtirish.
2. Har bir kasb yo'nalishi uchun tadbirkorlik kompetensiyalarining aniq indikatorlari va baholash mezonlarini ishlab chiqish.
3. Texnikumlarda Startup Lab, Mini Company va Business Incubator kabi amaliy o'quv muhitini tashkil etish.
4. Dual ta'lim doirasida mahalliy tadbirkorlar, sanoat korxonalari va xizmat ko'rsatish sohasi vakillari ishtirokini kengaytirish.
5. Tadbirkorlik kompetensiyalarini baholashda portfolio, kompetensiyaviy rubrikalar, keyslar va loyihalarni himoya qilish usullaridan tizimli foydalanish.
6. Hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvidan kelib chiqqan holda mahalliy tadbirkorlik muhiti bilan integratsiyalashgan ta'lim modelini ishlab chiqish.



7. Texnikum bitiruvchilarining tadbirkorlik faoliyati va o‘zini o‘zi band qilish ko‘rsatkichlarini monitoring qilish hamda natijalarni ta’lim sifatini baholash mezonlariga kiritish.

8. Kasbiy ta’lim muassasalarida tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning milliy modelini ishlab chiqish va uni tajriba-sinov asosida aprotatsiyadan o‘tkazish.

XULOSA

Xorijiy tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tadbirkorlik kompetensiyalarini samarali shakllantirishning asosiy omillari kompetensiyaviy yondashuv, amaliy ta’lim, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish hamda ish beruvchilar bilan uzviy hamkorlikdan iborat. Yevropa Ittifoqining EntreComp modeli, Germaniyaning dual ta’lim tizimi, Finlyandiyaning kompetensiyaga asoslangan ta’limi hamda AQSHning Junior Achievement dasturi bu borada eng samarali yondashuvlar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Ushbu tajribalarni milliy ta’lim tizimiga ilmiy asosda moslashtirish kasbiy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining raqobatbardoshligini oshirish, ularning innovatsion va tadbirkorlik faolligini rivojlantirish hamda mamlakat iqtisodiyoti uchun malakali va tashabbuskor kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishning milliy modelini yaratish va uning samaradorligini pedagogik eksperimentlar asosida baholash mazkur yo‘nalishdagi keyingi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.



2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi “Kasbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.

4. Tojiyev S.S. Dual ta’lim sharoitida o‘quvchilarning tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari // Kasb-hunar ta’limi. – Toshkent, 2026.

5. European Commission, Joint Research Centre. EntreComp: The Entrepreneurship Competence Framework. — Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2016.

6. López-Núñez M.I. et al. EntreComp Questionnaire: A Self-Assessment Tool for Entrepreneurship Competencies // Sustainability. — 2022.

7. Teachers’ Practices in Developing Entrepreneurial Competence for Innovative Quality Education // European Journal of Investigation in Health, Psychology and Education. — 2025.

8. Developing a Rubric for Assessing Students’ Competencies in Entrepreneurial-STEM Learning Context // Research study, 2024.

9. Fostering Entrepreneurship Education by Improving Assessment Rubrics for Entrepreneurship Competence // Research study, 2023.

10. Kolho H. et al. A vocational education and training subject teacher for fostering students’ entrepreneurial skills: The development of a conceptual model // International Journal of Training and Development. — 2024.

